

**ALISHER NAVOIY “SADDI ISKANDARI” ASARI LEKSIKASINING
FUNKSIONAL-SEMANTIK XUSUSIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10444629>

Egamova Shoxida Djalilovna

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti

filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining leksik tarkibi funksional-semantik jihatdan tahlil qilindi, asarda qo‘llanilgan leksik boylikning mavzuviy guruhlari aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *leksika, istiloh, ijtimoiy-siyosiy, harbiy, astroponim, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, musiqiy istiloh, samotizm, qavm-qarindoshlik, sport istilohlari, tibbiy istilohlari, kitobat istilohlari, teonim, etnonim, fitonim, zoonim, yosh va jins so‘zlari, mavhum otlar, sema, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, madan, antroponimlar, toponim.*

“Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak. Ajdodlar merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoitlarni yaratamiz”⁵⁰.

Sh.M.Mirziyoyev

Shuni alohida qayd qilish kerakki, Navoiy o‘zining badiiy asarlarini turk-o‘zbek xalqi uchun, uning bu asarlardan bahramand bo‘lishini nazarda tutib, xalq tushunadigan sodda tilda yozishga harakat qilgan. Ammo buyuk iste’dod egasi bo‘lgan Alisher Navoiy o‘zining barcha she’riy va nasriy asarlarini sodda uslubda yaratishni lozim ko‘rmadi. U o‘z asarlari orqali zamonaning juda muhim ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-falsafiy masalalarini ko‘tarib chiqdi. Shuning uchun u katta adabiyot uchun “oliy uslub”da yozishni munosibroq deb hisoblar, o‘z asarlarida soddalikni oshirib yubormaslikka harakat qilar, she’riyatda badiiy uslub soddaligini haddan oshirib yuborgan shoirlarni “ko‘p turkona aytur erdi” deb tanqid qilar edi⁵¹. Yuqori uslubda asar yozish ehtiyoji esa, o‘z navbatida, o‘zlashgan qatlamga oid, ya’ni arabcha, forsha-tojikcha shakllarni, so‘z va iboralardan keng foydalanish zarurligini taqozo etardi. “Yuqori uslub” asosida asar yaratish o‘sha davrlarda yozuvchilikning yaxshi fazilati hisoblangan. Shu asosda u o‘z asarlarining tilini ancha murakkablashtiradi. “Saddi Iskandariy” dostoni tili va uslubi nuqtayi nazaridan olib qaralsa, “yuqori uslub” asosida yaratilgan asarlardan biri sanaladi.

⁵⁰ <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-alisher-navoiy-nomidagi-ozbekiston-milliy-bogida-barpo-etilgan-adiblar->

⁵¹ Muxtorov A., Sanaqulov U. O‘zbek adabiy tili tarixi. -T.: “O‘qituvchi”, 1995.-B.121.

Biz ushbu maqolamizda Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostoni tilida qo‘llanilgan kelsik birliklarning mavzuviy guruhini aniqlashga, ba’zi bir o‘rinlarda esa ayrim istilohlarning leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik.

“Sadii Iskandariy”⁵² dostonining so‘z boyligini quyidagi mavzuviy guruhlarga ajratib o‘rgandik:

1)ijtimoiy-siyosiy istilohlar: *raiyat, adolat, siyosat, taxt, davlat, mulozim, toj, ulus, sohibqiron, valiahd, amr, xaloyiq, shah, shahnshoh, shohzoda, davlatpanoh, avom, avroq, dirafsh, dorofar, yorliq, salotin, salotinzoda, suyurg‘ol, sarvar, taxtgir, xonzoda, ulyo, farmon, farmondih, devonbegi, chokar, shahriyor, yalov* kabi.

Adolat aro fasli navro‘zdek,

Siyosatda barqi jahon so‘zdek.

(116-bet)

Anga **taxtu davlatni** maskan qiling,

Boshin **toj** birla muzayyan qiling.

(116-bet)

2)harbiy istilohlar: *saf, yarash, surat, yamin, sinonvar, qin, tig‘, yasoq, чepук/cherig, cherigchi, xoqon, sipah, sipahdorlig‘, nigahdorlig‘, o‘q, zirih, girih, gurzi, harb nazzorasi, harb oyin, ko‘k temur, dovulg‘a, qo‘shun, qo‘shunbeklik, nayzavar, nayza, qilich, tig‘zan, zobit, sipahdor, hirovul, aduvband, arug‘dol//arg‘adol, bargustvon, borong‘or//burong‘or, bungoh, yasol, vag‘o, davulg‘a, davulg‘on, dapqur//dabqur, dargahnishin, jiba, juvong‘or, qo‘ryo, sipohiy, sulh, tabl, tig‘zan, tutqun, xadang, xasm, xasmband, xafton, xoqonliq/xoqonlig‘, xo‘d/xud, shaybol, e‘lomgar, yurush, yasoq//yasog‘, o‘pchunliq//o‘pchunluq* kabi.

Ki, solib ulus tarkidin **qing‘a tig‘**,

Qilib tark qon to‘kmagin bedarig‘.

(25-bet)

Yasoq birla yetkurtayin favj-favj

Ki, tutsun **cherik** ne hazizu ne avj.

(38-bet)

3)astroponimlar: *quyosh, fazo, suturlob/usturlob, falak, oy, qamar, yer, koinot, xurshid, aflok, badr, gardun, samo* kabi.

Gini yo‘qki, **oy** uzra piroyadur,

Quyosh ustida mushkdin soyadur.

(20-bet)

Yangi **oyni** jomi **hiloliy** qilib,

Nechakim to‘la bo‘lsa xoli qilib.

(50-bet)

⁵² Alisher Navoiy. Xamsa. Saddi Iskandariy. Mukammal asarlar to‘plami. O‘n birinchi tom. -T.:”Fan”, 1993.-B.116. (Mavzuni yoritishda ushbu asardan foydalanilgan).

4)adabiyotshunoslik istilohlari: *g'azal, masnaviy, asnof, devon, ash'or, bayt, daftar, doston, suxanvar, fardgo'y, fard, kabi.*

G'azal dardu so'zini, vah-vah, ne dey,

Desa **masnaviy**, Alloh-Alloh, ne dey!

(51-bet)

Har **asnofi** zikri emas sha'nima,

Bilur har kishi boqsa **devonima**.

(243-bet)

5)musiqiy istilohlar: *mug'anniy, sur, navo, ohang, garm, navosoz, o'lang, barbat, vazn, chang kabi.*

Mug'anniy, navoda tuzub mu'tadil,

Navosizliq qil manga muttasil.

(125-bet)

Mug'anniy cholib, garm hangoma tuz,

Surudungda **ohangi** "Shahnoma" tuz.

(163-bet)

6)inson tana a'zolari bilan bog'liq leksema (samotizm)lar: *ayog', qo'l, ko'z, og'iz, ilig, bosh, ko'ks, so'ngak, engak, bo'yin, quloq, bo'g'iz, badan, bel, til, qosh, gisu//gesu, gurdagoh, jabin, yano kabi.*

Dedim bog'labon zolim **ilgini** rust,

Osib **bo'g'zidin** ul uy ollida chust.

(134-bet)

Yalang erdi boshu, **ayog'i** yalang,

Yaqo chokidin **ko'ksi** dog'i yalang.

(110-bet)

7)qavm-qarindoshlik istilohlari: *qavm, sabiy, ato, qiz, ano, o'g'ul, farzand, ajdod, valad, jigargo'sha, zan, zod, xalafzod kabi.*

Bo'lub shomi rihlat **anoning** kuni,

Kelib gohu gah yo'q-o'g'ulning uni.

(94-bet)

Qarindosh topsa **qarindoshini**,

Damo-dam tilab kesgali boshini.

(167-bet)

8)sport istilohlari: *chavgon, bisoti masof, gurd, chiyrarazm, chira//chiyra, chiradast//chiyradast, chobuksuvor, sheramard, sherzan, sherpaykar, shinovar, shohsuvor kabi.*

Bukim ilgima soldi **chavgonini**,

Musallam manga tutti maydonini.

(162-bet)

Manga muncha hikmat tariqida lof

*Ajab yerda yoydim **bisoti masof.***

(260-bet)

9)tibbiy istilohlar: *xasta, saqim, dard, dardnok, suubat, hakim, bedavo dard, salim, sarig'liq/sarig'lig', shikasta kabi.*

Qatil etganing zolimi shumni

*Ki, qutqording ul **xasta** mazlumni.*

135-bet

*Biri yelki, elni qilur **dardnok,***

Biri bardi mufritki-aylar halok.

(258-bet)

Damekim, shah o'z adlidin fard erur,

*Anga ul dami **bedavo dard** erur.*

(254-bet)

10)kitobat istilohlari: *bit=, bitik, daftar, devon, sabt, safha, tahrir, fathnoma, xomazan kabi.*

*Skandar o'qug'ach **bitidi** misol,*

Ki siz kelgali bo'lmang oshufta hol.

(273-bet)

*Ado bo'ldi har bayt aro **daftare,***

Har uy ichra qildim nihon kishvare.

(255-bet)

11)teonimlar: *masjid, saqar, Alloh, Iloh, gunoh, qiyomat, tomug', Muso, "Tavrot", Iso, "Injil", Haq taolo, but, butparast, Tangri/Tengri, do'zax kabi.*

Manga chunki sizdin madad bore di,

*Ne sizdinki, **Tengri** madadkor edi.*

(34-bet)

*Ulusqa agar ul **gunoh** ishdurur,*

***Qiyomatqacha** afvu baxshishdurur.*

(12-bet)

12)etnonimlar: *o'zbek, mo'g'ul, qalmoq, turk, mo'g'ul, mang'it, arab, gurji, charkas kabi.*

*Yana yuz ming **o'zbek mo'g'ul** birla zam,*

*Yuz ellik ming ul sori **qalmoq** ham.*

(188-bet)

*Yana **mang'it o'zbek** bila yondashib,*

Ikki zulfdek tuzlari chirmashib.

(189-bet)

13)fitonimlar: *gul, nastarin, binafsha, yong'oq, yig'och, qamish, lola, xurmo, abhar, arpa, giyoh, zaytun, sapidor, sunbul, tol kabi.*

*Ochib **gullarin** ul musamman chaman,*

Boshi uzra sochib gulu nastarin.

(26-bet)

Yig'och uzra gar bo'lsa yuz ming **yong'oq**

Ko'mar yerga har ne o'g'urlodi zog'.

(104-bet)

Yig'ochu **qamishdin** yasab xonumon,

Ani sandal zarhal aylab gumon.

(133-bet)

14)zoonimlar: chibin, sher, tulku, chayon, o'chku, mo'r, sichqon, ot, pil, pashsha, kiyik, arslon, qarchig'ay, jo'ja, balig', tovuq, maymun, karkadan, bo'ri, it, qo'zi, yilon, mushuk, bulbul, bijin, bora, boz, bug'u, gavazn, gurza, go'rdav, go'sola, dad, durroj, jonvar//jonivor, jual, samand, sandarus, sung'ur, tazarv, takovar, tovus, to'ti, ud, uqob, chubchuq//chupchuq, shohin, shuturmurg', yakron kabi.

Chayon no'sh sochmoq qilib ibtido,

Yetib nishining band-banddin judo.

(26-bet)

Adolat qo'lin tutti andoq biyik

Ki, topti amon **arslondin kiyik.**

(125-bet)

Karak xaylig'a **qarchig'ay** darmiyon,

Alar **jo'ja** yanglig', bu bir makiyon.

(125-bet)

15)yosh va jins so'zlari: yigitlik, qarilik, fartutluq/fartutlug, 'ayol, ajuz, asann, shabob kabi.

Yana bir: **yigitlikki** topmay xalal,

Qarilik bila bo'lmag'ay ul badal.

(111-bet)

Ayolu vatan uzra to joni bor,

Kishi harb etar toki imkoni bor.

(140-bet)

16)mavhum otlar: yaxshiliq, qayg'u, farog'at, armon, so'g kabi.

Yig'ib **yaxshiliq** birla yaxshi qiliq,

Qiliqdek boshingdin-ayoq **yaxshiliq.**

(76-bet)

Ichin ham qaro **qayg'u** g'amnok etib,

Yaqosin dog'i subhdin chok etib.

(14-bet)

17)o'rin-joy semasini izohlovchi so'zlar: saroparda, saroy, tog', bandar, barr, bum, dara, siyahchol/siyohchol, soyabon, charogoh, choh, shahr, yabon kabi.

Chu mashg'ul bo'ldum tamoshosig'a,

*O'tub vodiyyu **tog'u** daryosig'a.*

(57-bet)

Sipohi masun barcha ofotdin

*O'tub **bandaru** mulki Gujrotdin.*

(300-bet)

18)ilm-fanga oid istilohlar: *fan, faylasuf, ilm, bilik, fikrat, donishpujuh, taallum kabi.*

*Ko'rub ummiyi **ilmlar** maxzani,*

*Ravon ilm kasb etmak o'ldi **fani**.*

(25-bet)

*Kishi yo'q **bilik** ichra monand anga,*

Arastuyi farzona farzand anga.

(248-bet)

19)ta'lim-tarbiya oid so'zlar: *tarbiyat, ustod, basirat, imtihan, adabsizlig', asboq, savod, talqin, tahsil kabi.*

*Vale yaxshig'a **tarbiyat** ayladi,*

Yana yaxshilar tarbiyat ayladi.

(124-bet)

*Tengizda ravon qilg'an **asboqini**,*

Chekilgan misohatning avroqini.

(312-bet)

20)dunyo tomonlarini ifodalovchi istilohlar: *shimol, sharq, g'arb, mag'rib kabi.*

***Shimol** ahlin ehsong'a g'arq aylabon,*

*Tavajjuh qilib azmi **Sharq** aylabon.*

(142-bet)

*Vatangohi aqsoyi **Mag'rib** zamin,*

Yeli ermish ul yerda vodiynishin.

(202-bet)

21)qimmatbaho tosh va madan nomi: *mis, firuza/feruza, oltun, olmos, dur, birinj, yoqut kabi.*

Vujudingdin aylab qazo kimiyo,

***Misin oltun** aylab bori anbiyo.*

(17-bet)

*Ikki ko'z anga ikki **olmosdek**,*

Vale davrasi qon to'la tosdek.

(202-bet)

22)tabiat hodisalari: *bulut, yomg'ur, abr, amtor, sayl, choqun, shafaq, shudrun kabi.*

***Bulut** boshig'a yetsa **yomg'ur** sochar,*

*G'alatdurki **yomg'ur** sochar, dur sochar.*

(53-bet)

*Vale mushk uza **abri** kofurbez,*

Jahon uzra yakdast kofurrez.

(269-bet)

23) yil, fasl, vaqt, hafta kunlari: *tun, fusul, kun, tong, bugun, soat, shom, qish, bahor, yoz, nahor, avqot, ayyom, day, dam, saboh, subhgah/subhgoh, shito* kabi.

*Ki, aylab yarim **tunlar** uyqu harom*

Ki, Haq sajdasi'ga qilurmen qiyom.

(66-bet)

Bugun-tonglaliq' *umr uchun ko'rma ranj*

Ki, qo'yg'aysen albatta ganj uzra ganj.

(152-bet)

24) moliyaviy istilohlar: *narx, diram, maosh, xiroj, bay', boj, dirham, ushr* kabi.

*Yana **narxlarga** qilib ishtig'ol,*

Og'ir sotquchig'ga berib go'shmol.

(124-bet)

*Keraktur alar birla nav'i **maosh***

Ki, xotirlari topmag'ay ko'p xarosh.

(220-bet)

Raiyatqa ma'lum etib ehtiyoj,

*Ikki yil alardin ko'tardi **xiroj**.*

(124-bet)

25) kasb-hunar leksikasi: *sotquchi, mug'anniy, ayoqchi, pasha, ayyob, anjumshunos, assor, axtarshunos, balog'atmaob, banno, barbatnavoz, barbarzan, bahrpaymo, bahrsoy, vahshiy fikan, ganjur, gulchin, dabir, donaposh, donarez, jat, saydgar, sayyoh, sanno', sohibmaqolat, suratnamoy, suturlobsoz, suxansanj, ta'rixsanj, xoroshikan, shergir, shubon* kabi.

Jahongirlik erdi andeshasi,

*Bu tadbir edi tunu kun **pehasi**.*

(261-bet)

Ayoqchi, *unut bir dam andishani,*

Ayoq ichra qilg'il nigun shishani.

(248-bet)

26) maishiy leksika: *bo'rk, gilem, 'tun, to'bra, to'ppi, to'n, pichoq, ko'za, itik, avoni, alochuq//alochug', san'atgar, safol, sitom, suhon, taylason, xarmuhra, charm, chatr* kabi.

Ko'kusga qoqib yumrug' o'rnig'ga tosh,

*Urub yer uza **bo'rk** o'rnig'ga bosh.*

(42-bet)

*Uy ichra **gilem** o'rnida **bo'ryo**,*

Kelib bog'u bo'ston buzuq qo'ryo.

(133-bet)

27)oziq-ovqat nomlari: *qand, un, to'sha, tuz, kuloch, yovg'on, umoch, at'ima, jug'rot, shilon* kabi.

*Ushoq **qand un-tuzga** monand erur,*

*Va lekin biri **tuz**, biri **qand** erur.*

(219-bet)

*Yoyilg'ach ulus olida **a'tima**,*

Ki tutqay bari jashn ichin har nima.

(316-bet)

28)ichkilik va ichimlik nomlari: *may, ayoq, gulob, boda, sharob, shahd, shira* kabi.

*Chu odil shah ilgidin ichgung **ayoq**,*

Necha e'tidol asrasang yaxshiroq.

(126-bet)

*Chu bexush uza septi andoq **gulob**,*

Ochildi anga nargisi nimxob.

(209-bet)

*Ichib **bodani** qo'ysa ollig'a bosh*

Qiyomatqacha bosh ko'tarmasa kosh!

(251-bet)

29)antroponimlar: *Rustam, Ahmad, Ahad, Yusuf, Zulayho, Akobir, Horun, Faridun, Qorun, Sulton Husayn, Badiuzzamon, Abulg'oz* kabi.

*Chu **Yusuf** so'zin oshkor aylabon,*

***Zulayho** kibi elni zor aylabon.*

(52-bet)

Kelib saltanat aynu, ul nuri ayn,

Badiuzzamon ibni Sulton Husayn.

(76-bet)

30)toponimlar: *Afrosiyob, Eron, Makka, Kayqubod, Hinduston, Hind, Dashti Qifchoq, Qirim, Xorazm, Osu Rus, Charkas, Gurja* kabi.

*Yana shohlig' qildi **Afrosiyob**,*

*Vale qildi **Eronni** zulmi xarob.*

(82-bet)

Balo abridin tushgach ul ildirim,

*Ko'rub **Dashti Qifchoqdin** to **Qirim.***

(72-bet)

Biz quyida oziq-ovqat nomlarini ifodalaydigan ba'zi bir so'zlarning funksional-semantik xususiyatlarini aniqlashga harakat qildik. Jumladan:

“Oddiy xalq, qora xalq” ma'nosini ifodalaydigan (O'TIL, I, 4)⁵³ **avom** leksemasi (ANATIL, I, 31)⁵⁴da “*Omma, xaloyiq, oddiy xalq*” ma'nosida keltirilgan. Dostonda ham shu ma'noda ishlatilgan.

⁵³ O'zbek tilining izohli lug'ati. I tom. -T.: “O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2006.-B.4.

Ki suhbat munosibdurur etsa shom,

Ki topqay sukun uyqu birla avom.

(270-bet)

“Kambag’al, beva bechoralarga tarqatiladigan issiq ovqat, shulon sho’rva”

ma’nosidagi (O’TIL, V, 4) **shulon** leksemasi (ANATIL IV, 31) *“shilon-shulon, umumiy taom”* ma’nosida berilgan. *Shilon* leksemasi *“Saddi Iskandariy”* dostonida ayni shu ma’noda qo’llangan:

Agar bo’lsa shilon ishida futur,

Chu arz ayladuk bizdin ermas qusur.

“Uvalangan xamir solib pishirilgan suyuq osh” ma’nosidagi (O’TIL, IV, 282) **umoch** leksemasi (ANATIL IV, 31)da *“taom”* ma’nosida berilgan. Dostonda ham yuqoridagi ma’noda qo’llanilgan.

Mubohot qilmas yemaktin kuloch,

g’amin bo’lmas ar topsa yovg’on umoch.

(106-bet)

Yuqoridagi satrlarda qo’llanilgan *“kulcha (f. —doirasimon yog’li non; kulcha) tandirda yopilgan kichkina, dumaloq non”* (O’TIL, II, 427) ma’nosidagi **kuloch** leksemasi esa (ANAIL, IV, 137) *“kalach, shirin kulcha”* ma’nosi bilan *“Saddi Iskandariy”* dostonida ham ko’zga tashlanadi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, Navoiy o’zining butun adabiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati davomida ona tilida katta adabiyot, fors-tojik tili bilan musobaqa qila oladigan darajada yuksak badiiy asarlar yaratish, turk-o’zbek tilini rivojlantirish, uning boy imkoniyatlarini ochib berish uchun tinmay harakat qildi. U *“yuqori”* bayon uslubi talablaridan kelib chiqqan holda arab va fors-tojik tillari unsurlaridan, ayniqsa, lug’at boyligidan, shuningdek, grammatik shakllari, badiiy tasvir vositalaridan keng foydalandi va o’zbek adabiy tilini boyitdi⁵⁵.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-alisher-navoiy-nomidagi-ozbekiston-milliy-bogida-barpo-etilgan-adiblar->
2. Abduvaliyeva D. Alisher Navoiy tarixiy asarlari leksikasi. Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -T., 2017.
3. Alisher Navoiy. Xamsa. Saddi Iskandariy. Mukammal asarlar to’plami. O’n birinchi tom. -T.:“Fan”, 1993.
4. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati. I tom. -T.: “Fan”. 1983.-B.31.
5. Muxtorov A., Sanaqulov U. O’zbek adabiy tili tarixi. -T.: “O’qituvchi”, 1995.
6. O’zbek tilining izohli lug’ati. I tom. -T.: “O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi”, 2006.
7. Xo’janiyozova Sh. Alisher Navoiy manoqib asarlari leksikasi. Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -T., 2022.

⁵⁴ Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug’ati. I tom. -T.: “Fan”. 1983.-B.31.

⁵⁵ Muxtorov A., Sanaqulov U. O’zbek adabiy tili tarixi. -T.: “O’qituvchi”, 1995.-B.137.